

Ko'z – noyob mo'jiza





Ko'rish orqali jismlarning rangi, o'lchami, shaklini aniqlaymiz. Bir narsa bizdan uzoq yoki yaqinligi, harakatlanayotgani yoki qimirlamay turgani, katta yoki kichikligini ko'z bilan bilib olamiz.

Inson ko'rish ne'mati tufayli kitob o'qiydi, televizor ko'radi, tabiatning go'zalligini tomosha qiladi.



1. Bu rasmlardagi shakllarning nomi nima?
2. Qanday rangdagi shakllarni ko'ryapsiz?
3. Har bir rasmda sizdan eng uzoqda turgan shaklni toping. Sizga eng yaqin turgan shakl qaysi?
4. Har bir rasmdagi eng katta shaklni ayting.





Odamlar haqida gapirsak, ko'pincha ularning ko'zi va sochining rangini aytamiz. Bu narsa sochdagi, teri va ko'z qorachig'idagi o'ziga xos moddaga bog'liq. O'sha modda qancha ko'p bo'lsa, rang shunchalik to'q bo'ladi.



Odatda ko'zlar jigarrang, ko'k (yoki kulrang) va yashil bo'ladi. Jigarrang ko'zni qo'yko'z ham deyishadi. Ba'zan bunday ko'zlarning rangi shunchalik to'q bo'ladiki, uni qora rang bilan adashtirib qo'yish mumkin.



Ko'zguga qarab, ko'zingizni yaxshilab o'rganing. Ko'zingizning rangi, nimalardan tashkil topgani haqida aytib bering.



1. Atrofdagilarga qarab, ko'zining rangi siznikiga o'xshaydigan odamlarni toping.
2. Hayvonning ko'zi insonning ko'zidan farq qiladimi?





Ko'pgina hayvonlar dunyoni insondan boshqacha ko'radi. Rasmlarga qarab, topib ko'ring-chi, kimning ko'zi o'tkirroq – siznikimi yoki mushuknikimi? Nima uchun?

Inson qanday ko'radi?

Mushuk qanday ko'radi?

Insonning kunduzi ko'rishi



Insonning kechasi ko'rishi

Mushukning kunduzi ko'rishi



Mushukning kechasi ko'rishi



Otlar qizil rangni ajratmaydi, lekin atrofidagi hamma narsani ko'ra oladi, chunki uning ko'zi kallasining ikki tomonida joylashgan. Ot faqat tumshug'ining oldi va dumining ortidagi ozgina joyni ko'rmaydi, xolos.



Ko'zning o'tkirligini saqlashga qaysi qoidalar yordam berishini eslang.